

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

10-maxsus
son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 5/10 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

Ismoilov Ubaydulla Mamat o'g'li

SUYIRLITEPA YODGORLIGIDA OLIB BORILGAN ARXEOLOGIK TADQIQOTLAR

VA TOPILGAN AYRIM TANGALAR TAHLILI 11-19

Saidboboyeva Gulzora Nematjonovna

O'ZBEKISTON ELEKTR ENERGETIKA SANOATI RIVOJIDA D.P.ROZITNING O'RNI 20-24

Umarov Sardor Yakubovich

XX ASRNING OXIRI-XXI ASR BOSHIDA GERMANIYA DAVLAT MOLIYASI VA

BIRLASHTIRISHNING MOLIYAVIY OQIBATLARI..... 25-31

Eshonkulov Shaxzod Eshkuvatovich

AHOLINING LOKAL-ETNOGRAFIK GURUHLARI VA ULAR BILAN BOG'LIQ

TOPONIMLAR 32-37

Olimov Nodirbek Anvarjon o'g'li

QO'QON XONLIGI ETNIK HOLATIGA OID MA'LUMOTLAR

(“TARIXI SHOHRUXIY” ASARI MISOLIDA) 38-41

Mo'minov Xusanboy Madaminjonovich, Daminova Mashhuraxon

DAVRIY MATBUOT VA UNING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O'RNI..... 42-45

Ahmedov Bahodir Ismailovich

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI AKADEMIYASINING

TARIXIY BOSQICHLARI 46-55

Ravshanov Mahmud

ALISHER NAVOIYNING ASARLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN

FOYDALANISH MAHORAT: YECHIMLAR VA ZAMONAVIY YONDASHUV MASALALARI..... 56-59

Asadova Ra'no Baymanovna

O'ZBEKISTON VA HINDISTON O'RTASIDAGI ILM-FAN HAMKORLIGI TARIXI

VA ZAMONAVIY BOSQICHLARI 60-64

Qurbonova Marg'uba

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TIL SIYOSATI EVOLYUTSIYASI

VA MILLIY IDENTITETNI SHAKLLANTIRISH JARAYONLARI

(1991–2025 YILLAR TAHLILI) 65-68

Kamolova Habiba Muhammadiyevna

SOBIQ SOVET HOKIMIYATI YILLARIDA SHAHRISABZ IQTISODIY

INFRATUZILMASIDAGI ZIDDIYATLI O'ZGARISHLAR 69-74

Ergashev Umar Kuzyevich

XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGI G'UZOR BEKLIGI AHOLISI

TARIXI (HARDURI ETNOGRAFIK GURUHI MISOLIDA) 75-79

Ergashev Akhror

THE FACTORS THAT HAVE LED TO INTERNAL CRISES IN PAKISTAN,

AND THE SUBSEQUENT STRENGTHENING OF THE MILITARY'S ROLE

IN THE COUNTRY'S POLITICAL LIFE 80-88

<i>Qurbonov Abbos Shonazarovich</i> SUN'YI INTELLEKT YORDAMIDA ARXIV HUJJATLARINI TAHLIL QILISH: YANGI TARIXIY YONDASHUVLAR	89-93
<i>Esanova Nilufar</i> CHET EL INVESTITSİYALARINING O'ZBEKISTON SANOAT SIYOSATIDAGI O'RNI: XALQARO HAMKORLIK TAJRIBASI ASOSIDA TAHLIL (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)	94-97
<i>Askarxodjayev Yaminxon Muxammedovich</i> "MAORIF VA O'QUTG'UCHI" JURNALI "MEHNAT MAKTABI NIMA DEMAK?" MAQOLASIDA O'ZBEKISTON SSRDA AMALIY TA'LIM G'OYASINING DASTLABKI NAZARIY ASOSLARI (1925-YIL, 1-SONI MISOLIDA)	98-105
<i>Ismatova Zulfizar</i> O'ZBEK MILLIY KIIYIMLARINING TAVSIFI VA TASNIFI	106-114
<i>Abdualimova Durdona Shavkat qizi</i> G'AZNAVIYLAR QUDRATINING YEMIRILISH NUQTASI.....	115-125
<i>Xadjamuratova Matlyuba Xoshimovna</i> YOSHLARNI IJTIMOIIY HIMOYA QILISH – TADQIQOTLARNING MUHIM YO'NALISHI	126-129
<i>Elboyeva Shaxnoza</i> ILMIY RAHBARLIK VA INNOVATSION BOSHQARUVDA O'ZBEK AYOL OLIMALARINING ROLI	130-134
08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI	
<i>Doniyorova Shaxnoza Doniyorovna</i> O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA GEOLOGIYA VA YENGIL SANOAT TARMOQLARI O'RTASIDAGI INTEGRATSIYANING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	135-142
<i>Jumaniyazov Nodirbek Odilbek o'g'li</i> MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA SANOAT TARKIBIY O'ZGARISHLARIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)	143-151
<i>Sharipova Gulchehra Farhod qizi</i> IMPROVING THE PRACTICAL MECHANISM OF EDUCATION QUALITY MANAGEMENT BASED ON FOREIGN EXPERIENCE: IN THE CASE OF JAPAN	152-157
<i>Nurmurodov Zafarjon Nurmurod o'g'li</i> MARKAZIY OSIYO DAVLATLARIDA MAHALLIY BOSHQARUV TIZIMLARIDA SUN'IY INTELLEKT QO'LLASH TAJRIBASI: O'ZBEKISTON UCHUN XULOSALAR	158-162
<i>Sharopov Nurmuhammad Bobirovich</i> DAVLAT SIYOSATI VA YASHIL IQTISODIYOT: SUBSIDİYALAR, SOLIQ VA RAG'BATLAR	163-166
<i>Ibragimov Nodir Nusriddinovich</i> AGRAR SEKTORNI INNOVATSION RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDA EKONOMETRIK PROGNOZLASH USHLARINING TAKOMILLASHTIRILGAN YONDASHUVLARI	167-174

<i>Soxadaliyev Abdurashid Mamadaliyevich</i> CHORVACHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRISH HAJMINI OSHIRISHDA BOZOR MEXANIZMLARINI RIVOJLANTIRISH.....	175-179
--	---------

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Raupova Ra'no Sohibovna</i> GLOBALASHUV VA AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA IBN SINO MEROSIDAN FOYDALANISH.....	180-184
<i>Mamayusupov Umidjon Kurbanovich</i> JAMIYATNI BOSHQARISHDA ILMIY BASHORATNING METODOLOGIK VA PROGNOSTIK VAZIFALARI	185-189
<i>Ergashev Ozodbek Shavkatovich</i> YANGI DAVR G'ARB FALSAFASIDA INSON MUAMMOSI	190-194
<i>Alimova Shaxnoza Xamidovna</i> NOGIRONLIGI BO'LGAN YOSHLARNING JAMIYAT HAYOTIDAGI TO'LAQONLI ISHTIROKI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR	195-205
<i>Tolipov Baxtiyor</i> YOSHLAR IQTISODIY FAOLLIGINING TARIXIY GENEZISI VA RIVOJLANISH OMILLARI	206-211
<i>Rasulov Azizxon Mukhamadqodirovich</i> AXBOROT TIZIMLARI, MAHSULOTLARI VA XIZMATLARIDAN AXBOROT BIZNESI MUHITINI YARATISH ASOSLARI.....	212-218
<i>Abdullayeva Ziyoda Nabiyevna</i> RAQAMLI JAMIYATDA AXLOQIY ISHONCHNI AVTOMATIK BAHOLASH TIZIMI	219-225
<i>Yekubova Mavluda Iskandarovna</i> RAQAMLASHGAN JAMIYATDA KOMMUNIKATIV REALLIK VA KOMMUNIKATIV RATSIONALLIK	226-232
<i>Madraximov Atabek Abduraximovich</i> EKOLOGIK TARBIYA HAMDA BILIM – EKOLOGIK MADANIYAT POYDEVORI	233-238
<i>Рахматов Нуриддин Негкадамович</i> МЕХАНИЗМ РАЗВИТИЯ ДУХОВНО-НРАВСТВЕННЫХ КАЧЕСТВ В ТВОРЧЕСТВЕ ХУСЕЙНА ВОИЗА КАШИФИ	239-243
<i>Axmedova Dilrabo Sa'dullayevna</i> YOSHLAR ORASIDA GIYOHVAND MODDALAR VA SPIRTLILIKLARGA QIZIQISHNING IJTIMOYIY SABAB VA OQIBATLARI	244-247
<i>Xudoykulov Azamat Beshumovich, Saidov Shomahmud Azamat o'g'li</i> INSON FALSAFASI	248-252
<i>Baratova Madina Xasanovna</i> KAMBAG'AL OILA FARZANDLARINING IJTIMOYIY FAOLLIGINI TA'MINLASH: INDIVIDUAL VA IJTIMOYIY OMILLAR	253-259
<i>Ismoilov Maxamadixon Isroilovich</i> IQTISODIY ADOLAT VA FAROVONLIK FALSAFASI: ETIK TAMOIYLLAR VA IJTIMOYIY NOMUTANOSIBLIKLAR TAHLILI	260-269
<i>Obidov Asliddin Shavkatovich</i> COSMIC UNITY AND MORAL CONSCIOUSNESS: REINTERPRETING FARGHANI'S COSMOLOGY THROUGH CHITTICK'S LENS	270-274

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Kaniyazova Jupargul Orinbayevna</i> THE RETROSPECTIVE PLOT IN THE SHORT NOVELS OF CH. AITMATOV	275-280
<i>Алиева Эльвина Аметовна, Нуруллаева Дилбар Алиевна</i> СПОСОБЫ ВЫРАЖЕНИЯ СРАВНЕНИЯ НА ЛЕКСИЧЕСКОМ, СЛОВООБРАЗОВАТЕЛЬНОМ И МОРФОЛОГИЧЕСКОМ УРОВНЯХ (НА МАТЕРИАЛЕ РАССКАЗОВ А. И. КУПРИНА)	281-285
<i>Sanaqulova Fayoz</i> REKLAMA MATNLARIDA METAFORA TURLARI VA YONDOSH HODISALAR.....	286-289
<i>Ruzibayeva Aziza Kahramanovna</i> THE THEME OF EXILE AND ALIENATION IN BYRON'S POETRY	290-293
<i>Norqobilova Nigora Uralovna</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI OLQISH VA QARG'ISH SO'ZLARING LINGVOMADANIY SHARTLANISHI	294-298
<i>Ahmedova Fayyoz Rashidovna</i> O'ZBEKISTONDA ICHKI TURIZM RIVOJLANISHINING INFRATUZILMAVIY, RAQAMLI VA SOTSIOMADANIY DRAYVERLARI	299-306
<i>Elmuratova Zamira Khodjamuratovna</i> SOME PECULARITIES OF ENGLISH, KARAKALPAK AND TURKMEN PROVERBS ABOUT LABOR.....	307-310

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Sultanova Sabohat Alisherovna</i> FURTHER DEVELOPMENT OF THE INSTITUTE FOR ASSESSMENT OF REGULATORY IMPACT IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AS AN ELEMENT OF "SMART REGULATION"	311-317
<i>Qushboqov Shohrux Xasan o'g'li</i> JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARINING TURLARI VA ULARNING FUQAROLIK-HUQUQIY MAQOMINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI BORASIDA AYRIM MULOHAZALAR.....	318-328
<i>Egamberdiyev Vohidjon Otabekovich</i> JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARIDAN OZOD ETILGAN SHAXSLARNI IJTIMOY REABILITATSIYA QILISH VA MOSLASHTIRISH FAOLIYATINI TASHKIL ETISH	329-339
<i>Xushvaqtov O'tkir Temirovich</i> VOYAGA YETMAGANLAR TOMONIDAN SODIR ETILADIGAN JINOYATLAR PROFILAKTIKASI BO'YICHA MILLIY QONUNCHILIK NORMALARI TAHLILI	340-346
<i>Leonid Khvan Borisovich, Zilola Gulimova</i> THE IMPACT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN PUBLIC ADMINISTRATION.....	347-353
<i>Normatova Shirin Abdalnabiyevna</i> XOTIN-QIZLARGA NISBATAN ZO'RAVONLIKKA QARSHI KURASH BO'YICHA MILLIY QONUNCHILIKDAGI BO'SHLIQLAR TAHLILI	354-362

<i>Каюмова Асая Султномуродовна</i> ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВЫЕ РЕФОРМЫ В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРАКТИЧЕСКИЕ РЕЗУЛЬТАТЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ	363-368
<i>Abdullayeva Sabohat Asatullo qizi</i> KRIPTOAKTIVLARGA OID JINOYATLAR VA XALQARO HUQUQIY TARTIBGA SOLISH ...	369-377
<i>Imomniyozov Doniyorbek Baxtiyor o'g'li</i> VIRTUAL MULKNING HUQUQIY REJIMI: SUI GENERIS YONDASHUV	378-392
<i>Amonov Zavqiddin</i> ISLOM HUQUQIDA MULKIY HUQUQLAR PARADIGMASI	393-400
<i>Saidmuradov Najmiddin Nabijonovich</i> YUQORI INSTANSIYA SUDLARIDA PROKUROR ISHTIROKINING JINOYAT-PROTSESSUAL JIHATLARI	401-405
<i>Makhmudjanova Mokhirakhon</i> ANALYSIS OF INTERNATIONAL EXPERIENCE IN ENSURING GENDER EQUALITY	406-411
<i>Нормуродова Азиза Азимжон кизи</i> СЕКСУАЛЬНОЕ НАСИЛИЕ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИЗОБРАЖЕНИЙ: ПОНЯТИЕ, ФОРМЫ И ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ	412-418

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Utkirov Nusrat</i> BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA HARAKAT SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA MUAMMOLI- MODULLI YONDASHUVLAR	419-424
<i>Jamolova Shahlo Qobilovna</i> BO'LAJAK FIZIKA FANI O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI DASTURIY TA'LIM VOSITALARIDAN FOYDALANIB RIVOJLANTIRISH METODIKASI ("REAL GAZLAR. MOLEKULALARARO O'ZARO TA'SIR. REAL GAZLAR. VAN-DER-VAALS TENGLAMASI" MAVZU MISOLIDA)	425-428
<i>Rasulova Moxidil</i> TIBBIYOT TA'LIMI TIZIMIDA FUNDAMENTAL FANLARNI O'ZLASHTIRISHDA TALABALAR BILIMINI BAHOLASHNING ASOSIY SABABLARI VA DIDAKTIK IMKONIYATLARI	429-438
<i>Ismailov Oybek Abdurasulovich</i> ANESTEZIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA ENTRUSTABLE PROFESSIONAL ACTIVITIES (EPA) TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANIB TALABALARGA MALAKAVIY TA'LIM BERISH	439-445
<i>Davlatova Nilufar Vosiljonovna</i> BO'LAJAK IQTISODCHI MUTAXASSISLARNING KREATIV IQTISODIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHDA PROBLEMALI VA LOYIHALI O'QITISH TEXNOLOGIYALARI	446-449

Received: 20 October 2025
Accepted: 15 November 2025
Published: 30 November 2025

Article / Original Paper

FUNDAMENTALS OF CREATING AN INFORMATION BUSINESS ENVIRONMENT BASED ON INFORMATION SYSTEMS, PRODUCTS, AND SERVICES

Rasulov Azizkhon Mukhamadqodirovich

Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophy

Fergana State University

www.orcid.org/0000-0003-3534-6047

Abstract. The article reveals the fundamentals of creating an information business environment through the use of information systems, products, and services. It is noted that information products are interpreted differently by various specialists; therefore, it is advisable to generalize the interpretations concerning information services. The study examines the idea that information services are processes related to meeting users' information needs, providing access to and utilization of information products, as well as ensuring the search and delivery of information regardless of the user's location.

Keywords: national economy, information systems, information products, information services, interactive services, marketing, finance and credit, investment, international media space, telecommunications.

AXBOROT TIZIMLARI, MAHSULOTLARI VA XIZMATLARIDAN AXBOROT BIZNESI MUHITINI YARATISH ASOSLARI

Rasulov Azizxon Mukhamadqodirovich

falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Farg'ona davlat universiteti

Annotatsiya. Maqolada axborot tizimlari, mahsulotlari va xizmatlaridan foydalanib axborot biznesi muhitini yaratish asoslari ochib berilgan. Axborot mahsulotlari mutaxassislar tomonidan turlicha talqin etilganligi, shu bilan birga, axborot xizmatlari to'g'risidagi talqinlarni umumlashtirish maqsadga muvofiqligi, axborot xizmatlari foydalanuvchilarning talablariga mos ravishda qayerda bo'lishidan qat'i nazar axborot mahsulotlaridan foydalanish, axborotlarni qidirish va taqdim etishni ta'minlash hamda axborot ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq jarayon ekanligi o'rganilgan.

Kalit so'zlar: milliy iqtisodiyot, axborot tizimlari, axborot mahsulotlari, axborot xizmatlari, interaktiv xizmatlar, marketing, moliya-kredit, investitsiya, xalqaro media makon, telekommunikatsiya.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI10Y2025N33>

Kirish. Jahonda axborot biznesi ko'plab rivojlangan davlatlar iqtisodiyotining o'zagi bo'lib, keyingi 50 yilda eng tez o'suvchi sektor hisoblanadi. Jumladan sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar (Big Data), raqamli texnologiyalar va xizmatlar yangi startaplarni vujudga keltirmoqda. Axborot-kommunikatsiyalar bozorida asosiy tovar bo'lib axborot mahsulotlari va xizmatlari sanaladi. Ya'ni axborot-kommunikatsiyalar texnologiyasi yordamida foydalanuvchilarga ko'proq axborot xizmatini ko'rsatish lozim. Axborot mahsulotlari mutaxassislar tomonidan turlicha talqin qilinadi. Fikrimizcha, axborot xizmatlari to'g'risidagi talqinlarni quyidagicha umumlashtirish maqsadga muvofiq, ya'ni axborot xizmatlari-bu

foydalanuvchilarning talablariga mos ravishda qayerda bo'lishidan qat'i nazar axborot mahsulotlaridan foydalanish, axborotlarni qidirish va taqdim etishni ta'minlash hamda axborot ehtiyojlarini qondirishdir.

Axborot xizmati turlarining vujudga kelishi axborot mahsulotlariga bo'lgan talabni oshiradi, chunki ular foydalanuvchilarning shaxsiy talabidan kelib chiqqan holda ma'lumotlarni taklif qiladi, natijada ishlab chiqaruvchi va foydalanuvchilarning axborot makoni yaratiladi. Shunday qilib, axborot mahsulotlari va xizmatlari zamonaviy axborot biznesining asosiy omillaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Bozor munosabatlari axborot mahsulotlarining yangiligi, ishonchliligi va to'liqligi darajalariga yuqori talab qo'yadi, chunki AKTlarisiz samarali marketing, moliya-kredit va investitsiya faoliyatini yuritish mumkin emas.

Axborot mahsulotlari va xizmatlari iqtisodiyotning turli sohalarida qo'llanilishi, uning o'rganish va tatbiq ko'lamini kengaytirib yubordi. Jumladan, yirik olim V.P.Tixomirovning fikricha - axborot mahsuloti iqtisodiy kategoriya sifatida turli tashuvchilarda to'plangan va belgilangan aniq axborotlarni jismoniy, yuridik shaxslar va iqtisodiy subyektlar o'rtasidagi ishlab chiqarish, yaratish, almashish va iste'mol qilish munosabatini tavsiflaydi. [5.240]. Ushbu bozorni kutubxona faoliyatining asosi sifatida o'rgangan olim I.I. Rodionov unga quyidagicha ta'rif bergan ... "Axborotning turli xil ishlab chiqarilgan shakllari iste'molchilarning turli xil talablarini qondirish uchun yo'naltirilgan xizmatlar yoki tovar ko'rinishidagi ishlanmalar axborot mahsulotlari yoki axborot xizmatlari deyishimiz mumkin". [4.549].

Ko'plab ilmiy tadqiqotlarda axborot mahsulotlari va axborot xizmatlari tushunchalarning farqi iqtisodiy kategoriya sifatida yetarli darajada to'liq va aniq ochib berilmagan. Masalan, S.A.Averyanova va I.S.Pilko dissertatsiya ishi tadqiqotlarida hamda M.Y.Dvorkina monografiyasida yuqoridagi tushunchaning mazmuni qisqacha ochib berilgan va muhim qismlari esa to'liq ko'rsatilmagan. Rossiyalik olim B.N.Chernishevning fikricha axborot mahsulotlari va xizmatlari bir-birini to'ldiradigan terminlar bo'lib, axborot mahsulotlari axborotlarga bo'lgan talabni qondirish va iste'molchilarga tugallangan holda taqdim etish bo'lsa, axborot xizmatlari esa axborotni yetkazib berish va taqdim etish bilan bog'liq xizmatlarda o'z ifodasini topadi.

Natijalar va muhokama. Axborot mahsulotlari va xizmatlari, axborot tizimlari nafaqat rivojlangan mamlakatlar, balki rivojlanayotgan mamlakatlarning chekka hududlariga ham kirib borib, ijtimoiy va iqtisodiy foyda olishga zamin yaratmoqda. Masalan, interaktiv xizmatlar tarmoqlarga kirishga imkon bo'lgan fermerlar bozordagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari narxлари haqida aniq axborotlarga ega bo'lishiga, qishloq sharoitida yashayotgan kishilar esa teletibbiyot vositalari asosida shaharlik vrachlar maslahatlarini olish va qishloq bolalari axborot tarmoqlari asosida oldin ololmagan bilimlarga kirib, zarurlarini tanlab olish va foydalanish imkoniyatiga ega bo'la boshlagan. Bu kabi innovatsiyalarga asoslangan axborot biznesi muhitini yaratishda quyidagilarga alohida ahamiyat qaratilishi lozim. [1.]:

a) milliy iqtisodiyotning mazkur tarmog'iga xususiy investitsiyalarni keng jalb qilishni rag'batlantirish;

b) barcha axborotlardan foydalanuvchi va ularni yetkazib beruvchilarga global kompyuter tarmoqlariga integratsiyalashuv imkoniyatlarini yaratish;

v) axborot-kommunikatsiyalar bozorida dinamik o'zgarishlarga moslashadigan me'yoriy-huquqiy bazani doimiy va uzluksiz takomillashtirib borish;

- g) taqdim etilayotgan AKT xizmatlarning xilma-xilligini ta'minlash;
- d) intellektual mulk huquqini himoya qilish.

Axborot mahsuloti va xizmatlari bozorining asosiy subyektlari mulkchilik shakllari va tarmoq xususiyatlaridan qat'i nazar barcha tashkilotlar, davlat va notijorat tashkilotlari, savdo assotsiatsiyalari va ijtimoiy xizmatlarni taqdim etuvchilardir.

Raqamli asrda jahon mamlakatlarida axborot-kommunikatsiyalar infratuzilmasini shakllantirish va integratsiyalashuv asosida global bozorga kirib borishi mumkin. Ushbu jarayonlarga e'tiborsizlik qilgan mamlakatlar esa butun ishlab chiqarish faoliyatiga, tadbirkorlarga va umuman jamiyat rivojiga turli shaklda zarar keltiradi. Shuning uchun ham mamlakatlar zamonaviy ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi yoki axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng ko'lamda qo'llash strategik vazifalar hisoblanadi. Chunki, ular qo'shimcha ish joylarini tashkil etish va xodimlarni qayta tayyorlashda chet el investitsiyalarini jalb qiladigan "yadro" bo'lib xizmat qiladi.

Ko'pgina mutaxassislar axborot biznesi industriyasini keng rivojlantirish uchun birinchi navbatda infrastrukturani rivojlantirishga yuqori ahamiyat qaratmoqda, biroq mazkur jarayonlar katta moliyaviy mablag'larni talab qiladi.

Jahon banki hisob-kitoblariga qaraganda, XXI asr boshlarida zamonaviy axborot-kommunikatsiyalar texnologiyalari kerakli axborotlarni yig'ish, uzatish, qayta ishlash va taqdim etish uchun zarur bo'lgan butun jahon axborot infratuzilmasini barpo etishga har yili 60 mlrd. AQSH dollari kerak bo'ladi. [6]. Ishlab chiqarish, moliya va telekommunikatsiya sohalari vakillari AKT sohalariga eng katta investitsiyalarni kiritadilar. Misol uchun Markaziy va Sharqiy Yevropadagi ularning ulushi 48 foizni tashkil etdi. Boshqa davlatlarda ham shunga o'xshash tendensiyalarni kuzatish mumkin. Dunyoda AKT sohasining turli yo'nalishlarida telekommunikatsiya operator kompaniyalari o'sish bo'yicha yetakchi hisoblanadi, bu esa AKT xarajatlarini 2020-yilda 6.3 foizga oshirilishiga olib keldi. Shu bilan birga, butun bozor hajmi 3,1 foizga oshishini kutish mumkin. [7].

XX asr oxirlaridan yuz bera boshlagan "axborot inqilobi" iqtisodiy sohada ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Har qanday mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishi, xususan, fan, ta'lim va madaniyat rivoji uchun asosiy shartlardan biri – turli sohalarga oid zarur axborotlarni tezkorlik bilan olish imkoniyatiga bog'liqdir.

Bugungi kunda hayotimizning barcha jabhalariga axborot-kommunikatsiya va kompyuter texnologiyalarining kirib kelgani va jadal rivojlanish yo'liga o'tgani jamiyatimizga ham katta o'zgarishlar olib kirdi. Natijada insoniyat axborotlashtirish sohasida haqiqiy inqilobiy o'zgarishlar davrini boshidan kechirmoqda. Dunyoda umumiy axborotlashgan hamjamiyat shakllanmoqda. Bu o'zgarishlar asosini axborotlashtirish, telekommunikatsiya va kompyuter texnologiyalari konvergensiya negizida axborot uzatish va iste'molchiga yetkazib berishning eng zamonaviy va samarali vositalari dunyoga kelayotgani tashkil etadi. Natijada, XXI asr – "axborotlashgan jamiyat asri" deb e'tirof etilmoqda. Ya'ni, axborotning tez va sifatli aylanishini ta'minlash mamlakat taraqqiyoti va ravnaqining mosh mezoniga aylanmoqda. Demak, hozirgi zamon iqtisodiyot va jamiyatning muvaffaqiyatli rivojiga axborotlashuv va telekommunikatsiya texnologiyalari garov bo'lmoqda. Bu texnologiyalarning rangbarangligi va qo'llash imkoniyatlari shu qadar bepoyonki, ulardan samarali foydalanish insonning ijodkorligiga va ixtirochiligiga bog'liqligi amalda sinalmoqda. Axborotlashuv jamiyatning asosiy belgisi – uning global xarakterga egaligidir. Bugun biz fuqarolik jamiyatning oyoqqa turishi

asosida davlatlar va odamlar o'rtasidagi chegaralar yo'qqa chiqishini, dunyo iqtisodining tuzumi tubdan o'zgarayotganligining guvohidirmiz. Axborotlashuv va telekommunikatsiya texnologiyalarning rivoji natijasi bo'lgan, bu o'zgarishlar – olimlar, siyosatchilar, axborot sohasining mutaxassislari diqqat-markazida turibdi.

Ma'lumki, axborot hamma jarayonlarning yuzaga kelishida ishtirok etadi, lekin qator holatlarda ba'zi jarayonlar ishtirok etmaydi. Ularning amalga oshirilishi har xil bo'ladi. Shu o'rinda ba'zi jarayonlar qaytarilishi mumkin. Axborotlarni yig'ish va ro'yxatdan o'tkazish har xil obyektlarda har xil kechadi. Bu jarayon boshqarish jarayonlari avtomatlashtirilgan xalq xo'jaligi obyekti faoliyatini aks etgan boshlang'ich iqtisodiy hisobotni yig'ish va ro'yxatdan o'tkazish, amalga oshiriladigan ishlab chiqarish korxonalari, firmalar va boshqalarda ancha murakkabdir. Axborotni yig'ish uni ro'yxatdan o'tkazish bilan birga olib boriladi.

Jahon media makonida yuz berayotgan shiddatli o'zgarishlar mamlakatimiz axborot maydonida o'z aksini topib borayotirki, quvonmay ilojing yo'q. Mazkur jarayonda, ayniqsa, texnik jihatdan zamonaviy shakldagi ommaviy axborot vositalarining dadil odimlayotgani yaqqol ko'zga tashlanmoqda.

Keyingi ikki yil ichida mamlakatimiz axborot makonida shunday fenomen yuzaga keldiki, qalami o'tkir jurnalistning har qanday o'tkir maqolasi e'tiborsiz qolmayapti. Ayniqsa, internet nashrlarida berilayotgan jurnalist surishtiruvlari natijasida "to'rtinchi hokimiyat" o'zining haqiqiy kuch-qudratini ko'rsata boshladi.

Yana bir muhim jihati – xalqaro miqyosda e'tirof etilgan xorijiy internet qidiruv saytlari keyingi paytda O'zbekistonda faoliyat olib borayotgan milliy media manbalariga tayanib, bevosita ular tarqatayotgan xabarlardan faol foydalana boshladi. Bu, albatta, ijobiy holat, muxbirlarimizning jahon axborot makoniga bevosita kirib borish imkoniyatini kengaytirmoqda.

Rossiyaning nufuzli "Yandex.ru" qidiruv portali O'zbekistondagi "Gazeta.uz", "UzReport.com", "UzDaily.uz", "Podrobno.uz", "Sports.uz" kabi internet nashrlari tomonidan tarqatilayotgan materiallarni o'zining yangiliklar lentasida muntazam e'lon qilishga kirishgani buning dalilidir.

2012-yilning yanvarida faoliyatini boshlagan Kun.uz loyihasi oradan uch yil o'tib, ya'ni 2015-yilda O'zbekistondagi internet nashrlarning birinchi beshtaligiga kirishga muvaffaq bo'lgan edi. Hozir, www.uz milliy qidiruv tizimi reytingiga ko'ra, u eng mashhur saytlar ichida ikkinchi o'rinda. Birinchi o'rinda - daryo.uz. Keyingi o'rinlardan esa olx.uz, stadion.uz, chempionat.asia, mover.uz loyihalari joy olgan. [8].

Google Analytics ma'lumotlariga ko'ra, Kun.uz saytiga har kuni o'rtacha 350 ming kishi tashrif buyurmoqda. Bunday katta auditoriyani shu paytgacha O'zbekistonda bironta internet gazeta yig'a olmagan edi. Sayt ijtimoiy tarmoqlar platformasidan ham samarali foydalanmoqda. Xususan, Facebook, Twitter, Instagram, Odnoklassnikidagi sahifalar ancha faol ko'rinishga ega. Telegram messenjerida esa @KunUzOfficial nomli kanal dadil faoliyat yuritmoqda. [8].

Milliy axborot makonida kun.uz, xabar.uz, gazeta.uz kabi yangi fenomenning paydo bo'lishi albatta o'quvchilar auditoriyasining tezkor va xolis xabarlariga bo'lgan ehtiyojini tom ma'noda ta'minlashga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga xalqimizni o'ylantirayotgan, mahalliy boshqaruv organlari rahbarlari panja ortidan qarab kelayotgan muammolarni ko'tarib, ularning yechimini topishda faol ishtirok etmoqda. Yillar davomida chet ellik ekspertlar va turli

darajadagi opponentlarning tanqidiga uchrab, xalqaro media makonidagi O'zbekistonning imijiga salbiy ta'sir o'tkazib kelayotgan muammolardan biri, sir emaski, majburiy mehnat edi.

Inson jamiyati o'z rivojlanishida industrial jamiyatdan postindustrial jamiyatga o'tib bormoqda. Ma'lumki, industrial jamiyatning asosiy rivojlanish manbai – energetik manbalar va energiyani ishlab chiqarish, tarqatish imkoniyatlari mavjudligidir. Axborotlashgan jamiyatda esa ishlab chiqarishning manbai bilimni to'plash texnologiyalari, axborotni qayta ishlash va simvolik kommunikatsiyalarga bog'liq bo'lib, jamiyat rivojlanishida bilim va axborot uzviy holda tadqiq etiladi. Ya'ni, bilim va axborot hozirgi kunda jamiyat rivojlanishining asosiy manbai hisoblanadi.

Rivojlanishning industrial yo'nalishida unumdorlik manbai – energetik manbalarni ishga solish, ishlab chiqarish va taqsimlash jarayonlarida energiyadan foydalanishni markazlashtirishdan iborat bo'lsa, axborotlashtirilgan yo'nalishda esa unumdorlik manbai – bilimlarni yaratish, axborotlarga ishlov berishdan iboratdir. Rivojlanishning har qanday turida bilim va axborot shubhasiz o'ta muhim omillar hisoblanadi, chunki ishlab chiqarish jarayoni hamisha bilimning muayyan darajasi va axborot ishloviga asoslanadi.

Axborotlashuv jarayonida axborot madaniyatiga ega bo'lgan inson tanlab olingan axborotlar bilan ishlay olishi, axborotlarni tizimlashtirish, umumlashtirish, tarkibiy qismlarga ajrata bilish hamda ularni boshqalarga tushunarli tarzda ifodalay olish malakasiga ega bo'lishi zarurdir. Bu talab ya'ni, televizor va radiopriyomniklarning, fotolaboratoriya va virtual kutubxonalarning, telefon va fakslarning qo'shaloq vazifalarini bajara oladigan, shu bilan birga hisoblash vazifalarning klassik dastasiga ega bo'lib, internet tarmog'iga tezlik bilan ulanishni ta'minlovchi ko'pqirrali multimedia tizimida o'z aksini topmoqda. Bu jarayonning eng muhim sabablaridan biri bo'lgan internet – jahonlararo kompyuter tarmog'ining dunyo ahli tomonidan tan olinishidir. Ayni mazkur tarmoq million-million odamlarni, yuzlab davlatlarni birlashtira oldi, geografik masofalarni qisqartirdi va inson faoliyatining turli-tuman sohalardagi o'zaro tillashuviga, muomalasiga xalaqit berayotgan g'ov-to'siqlarni o'rtadan sidirib tashladi.

Internetning paydo bo'lishi va butun dunyoda boshlangan bozor erkinlashuvi kommunikatsion xizmatlar narxining pasayishiga olib keldi. Bu ikki muhim omil axborotlashuv sohasining rivoji va uning ijtimoiy jihatdan kuchayishiga salmoqli hissa qo'shdi. Keyingi kompyuterlar hamda aloqa xizmatlari narxi pasayishi natijasida ulardan nafaqat biznes uchun va davlat muassasalari, balki ko'pchilik odamlar ham foydalana boshlashdi, bu o'z navbatida axborotlashuv industriyaga hal qiluvchi ravishda ta'sir etdi. Chunki, uning millionlab yangi mijozlari hamda bozorlari paydo bo'ldi.

Axborotlashuvni kompyuterlashtirish yoxud axborotga ommaviy ravishda erkin va bemalol ega bo'lish konsepsiyasini tadqiqotchilar Y.M.Kanigin va G.I.Kalitich ifodalab berishgan. "Axborotlashuv, — deb yozishadi mazkur mualliflar, — kompyuter texnikasini ijtimoiy-iqtisodiy sohaning turli jihatlarida joriy etishgina emas, balki butun mashinalashtirilgan axborotlashuv texnologiyalarini shakllantirish, ularni ommaviy ravishda ijtimoiy organizmga payvandlash va faoliyatning yangi turlarini paydo qilish maqsadida ulardan foydalanishdir. Axborotlashuv xalq xo'jaligining tizimga asoslangan axborotlashuv muhitlarini yaratishga, ma'lumotlar va bilimlar bazalarini shakllantirishga ishlab chiqarishda, boshqaruvda, ilm-fanda, ta'limda, xizmatlar sohasi va kompyuter texnikasi kiritilayotgan boshqa sohalarda uzluksiz axborot aloqalari va oqimlarini yuzaga keltirish bilan bog'liqdir". [2.22].

Ba'zi bir tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, axborotlashgan jamiyat shunday jamiyatki, unda odamlar hamma narsadan xabardor bo'lib, qishloq xo'jalik ishlari bilan emas, balki fuqarolarning aksariyati bilim va axborotlarini yaratish, yig'ish, saqlash, ishlov berish yoki taqsimlash ishlari bilan mashg'ul bo'ladilar. Boshqa tadqiqotlarda axborotlashuvning yangi texnologiyalar va faoliyat turlarini yaratishni, axborotlashuv sharofati bilan haqiqiy organizmga aylanuvchi boshqa turdagi ma'naviy-madaniyat paydo bo'lishini muhimroq deb hisoblashadi. Masalan, yangi cheksiz imkoniyatlardan tashqari ishlab chiqarish sohasida telediagnostika va teleterapiyaning, telekommunikatsiyaning kutilmagan istiqbollari ochilmoqda. O'qish, bilim olish, kasbni o'zgartirish va axborotni shaxsan o'zlashtirishning ko'z ko'rmagan, quloq eshitmagan istiqbolli imkoniyatlari ochildi. [3.20].

Xulosa. Agar barcha ko'rsatilgan jarayonni umumlishtirsak, bu sohadagi birinchi tendensiyaning quyidagidek ifodalash mumkin: axborotlashuv faqat axborotning hajmiy o'sishiga – stansiyalar, tarmoqlar yaratilishiga, ma'lumotlar va bilimlar bazalarini barpo etishga olib kelmaydi, balki prinsipial jihatdan mutlaqo yangi texnologiyalar (axborotlashuvdan boshqa), yangi madaniyat, jamiyatning yangi turiga yetaklaydi. Ikkinchi tendensiya – axborot va axborotlashuv bugungi kunda axborotlashuv muhiti, deb ataluvchi alohida muhitning paydo bo'lishiga ko'maklashadi. Qachonki axborotlashuv (informatsion) muhiti uning ichida saqlanayotgan va harakatlanayotgan axborot nuqtai-nazaridan olib ko'rilsa, u muayyan insoniy maqsadlarga xizmat qiluvchi texnikaviy obyekt sifatida namoyon bo'ladi, maqsadlar esa mazkur texnikaga nisbatan harakatning tashqi shart-sharoitlari vazifasini bajaradi. Muhit kommunikatsiya vositasi (faktik axborotni uzatishgina emas, balki fikr-mulohazalar, amr-farmoyishlar, va'dalar, farazlar, savollar va shu kabilarni ham yetkazish) sifatida ko'rila boshlangach, u madaniyatning ajralmas qismi sifatida bo'y ko'rsatadi va shu taxlitda tahlil etilishi shart.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Бобожонов А. Рақамли маркетинг хизматларини сотишдан тушадиган фойдани максималлаштириш. Давлат статистика қўмитасининг “Ўзбекистон статистика ахборотномаси” илмий электрон журнали. 2019 йил, 1-сон.
2. Канигин Ю.М., Калитич Г.И. Информатизация и управление научно-техническим прогрессом. Киев, 1988. с.22.
3. Ракитов А.И. Информатизация: состояние, структура, перспективы// перспективы информатизации общества. Москва.: Прогресс. 1990. - С.20.
4. Родионов И.И. Рынок информационных услуг и продуктов. - М.: МК-Периодика, 2002. - 549 с.
5. Тихомиров В.П., Хорошилов А.В. Введение в информационный бизнес. М.:Финансы и статистика, 1996. - 240 с.
6. Forrester тадқиқот компанияси томонидан тақдим этилган: www.forrester.com. Мурожат санаси: 26.05.2021.
7. Гартнер компанияси томонидан тақдим этилган тадқиқот: <https://www.gartner.com/en/newsroom/press-releases/2020-01-15-gartner-says-global-it-spending-to-reach-3point9-trillion-in-2020>.
8. <https://beruniyalimov.uz/archives/498>.

9. Mukhamadqodirovich, R. A. (2023). Янги ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясида иқтисодиёт тармоқлари масаласи. Journal of innovations in scientific and educational research, 2(15), 431-435.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ S/10 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).